



## O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA INSONIY KECHINMALARNING IFODALANISHI

M.Sharipova

FarDU o‘qituvchisi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada insoniy fazilatlarni ifodalovchi lisoniy vositalar O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani misolida tahlil qilingan.

*Kalit so‘zlar:* O‘tkir Hoshimov, dolzarbliligi, timsol, psixolingvistika, aloqa-aralashuv, lisoniy vositalar.

*Annotation.* In this article, the linguistic and nonlinear means of expressing mental state are analyzed using the example of the novel “between two doors” by acute Hoshimov.

*Key words:* O‘tkir Hashimov, relevance, symbol, psycholinguistics, communication-intervention, linguistic means.

O‘.Hoshimov ning asarlarida insonparvarlik, milliylik, Vatanga muhabbat g‘oyalari hamisha ilgari surilgan. Adib o‘z yaratgan asarlarida ham hajviy usulda, ham drammatizmga boy usulni qamrab olishni harakat qiladi. O‘tkir Hoshimov nafaqat yozuvchi, balki teran fikrli faylasuf ham desak yanglishmagan bo‘lamiz.

“Ikki eshik orasi”-ushbu roman O‘tkir Hoshimov merosining asosiy qismini egallaydi. Asardagi obrazlar, voqealar rivoji, joy tasvirlari, inson taqdiri va inson umrining murakkabligi yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan tasvirlanadi. Adib asarda urush va uning oqibatlarini tilga olarkan, bu voqealar har biro ta-ona qalbini jarohatlaganini, inson qalbiga qay darajada ozor yetkazganini kuchli pafos orqali o‘quvchiga ko‘rsata oladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, adib yaratgan obrazlar oddiy odamlar haqida. Ulardagi insoniylik, Vatanga bo‘lgan muhabbat, bir-biriga bo‘lgan mehr hamda kuchli matonat, sabr-bardosh haqida so‘zlaydi. Asar tili oddiy va xalqchil edi. Bugungi kunda psixologlarni, tilshunoslarni qiziqtirgan jihat nutqiy faoliyatdir. Bir qarashda tilni go‘yoki katta bir dengizga o‘xshatamiz. Kimdir uchun yaxlit, zerikarli, rangsiz ko‘ringan bu dengiz, ya’ni til, endi butun go‘zalligi, rang-barangligi, ohangdorligi, jozibasini har bir tomchida, ya’ni har bir shaxsning nutqida namoyon etadi. Xuddi shu yerdan psixolog va lingvistlarning o‘rganish obyekti umumiy lashadi, ya’ni psixolingvistika boshlanadi. Asardagi hodisalarni, insonlar nutqini, har bir epizod holatini adib o‘quvchining qalbiga jiddiy ta’sir qiladigan darajada yaratdi. Tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabat, shuningdek yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Inson - murakkab mavjudot. Uning ruhiyatida bo‘layotgan o‘zgarishlar bevosita nutqida ham aks etadi. Quvonch, shodlik, g‘am, qayg‘u, achinish, armon, og‘riq, iztirob, alam, ... v.h. Ruhshunoslikda inson emotsiyasi affekt (juda kuchli, lekin qisqa muddatli emoysional reaksiyalar), hissiyot (uzoq va turg‘un emotsional



munosabat), kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo‘linadi. Ushbu holatlar badiiy matnlarda tilning turli sath birliklari vositasida aks etadi”<sup>1</sup>.

*-Bu dunyoga kelib nima ko‘rdi bechora,- dedi titroq lablarini tishlab.- Odamzodning holi shu-yu qadri yo‘q.*

*-Otlanaqol, Muzaffar...-Dadam dag‘al barmoqlari bilan papirosini piyolaga botirib o‘chirdi. Sekin o‘rnidan turib, cho‘loqlanib borganicha chiroq yoqdi.- Samalyotga ishonib bo‘lmaydi,-dedi o‘ziga o‘zi gapirayotgandek.-Poyezdga chiqasan. Halizamon Omon keladi. O‘zi obchiqib qo‘yadi.*

*Indamadim. Ko‘z oldimda yana o‘sha qor bosgan hovli, chaqmoq telpakli kishi,muzlagan perronda sirg‘anib-sirg‘anib vagon ketidan yugurgan onam jonlandi.*

*-Sho‘rlikning sendan bo‘lak kimi bor!-Oyim yengining uchini ko‘ziga bosdi.- Jilla qursa sovuq diydorini ko‘rib qol,bolam...*

*Ehtimol,kecha onam ham shu oymomoga termilib,meni o‘ylab yotgandir. Ko‘rgisi kelgandir. ”O‘g‘lim qani?”, deb so‘ragandir. Nasibaga yalingandir:”Akangni chaqirtiq,ko‘rib qolay “, degandir...*

(“Ikki eshik orasi”, 12-bet)

“Fiziologlar, psixologlar va tilshunoslar tomonidan shaxsning muomala jarayonida ma‘lum axborotni uzatishda emotsional holat inson aloqa-aralashuvining ajralmas qismi ekanligini qayd etadilar. Fiziologlar inson va hayvonlarda tashqi olamga, munosabat ichki hissiyot ta‘siriz bo‘lishi mumkin emasligini aytsalar, tilshunoslar so‘zlovchi va tinglovchining ma‘lum axborot uzatish va qabul qilish jarayonida yoki uning ifodasida emotsional holatni lisoniy ifodalashga e‘tibor beradilar<sup>2</sup>.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan keltirilgan yuqoridagi parchada yozuvchi personaj ruhiy holatini ifodalashda bir qator vositalardan foydalangan. Jumladan,*bu dunyoga kelib nima ko‘rdi,sendan bo‘lak kimi bor,sovuq diydorini ko‘rib qol,ko‘rgisi kelgandir,oyga termulib* kabi ifodalar asardagi personaj – Muzaffarning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

Yoki quyidagi misolda personajning nutqini oddiy so‘zlashuv uslubida bola tilida so‘zlashishining berilishi bilan ruhiy holat ifodalashga, ya‘ni personajning xursandchiligini ko‘rsatishga xizmat qilgan:

*–Nilu!” deyishim bilan yarq etib qaradi-yu arqonning bandidan sudragancha men tomonga yugurdi.*

<sup>1</sup> Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ birlikлари воситасида акс этиши: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Фаргона, 2018. –Б.102-103

<sup>2</sup> Саидхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан.номз.дисс. – Тошкент, 1993.



–Senga minnima obkeldim!- dedim bir qo'limda limon o'ralgan gazetani quchoqlagancha ,ikkinchi qo'limni cho'ntagimga tiqib.

–Nima ,katta ada,nima?-dedi Nilufar halloslab.

–Urre!Katta adam jevachka obkeldila!-Nilufar qo'limdan saqichni yulib oldi-yu kutib turgan o'rtog'i tomonga ketdi.

(“Ikki eshik orasi”, 12-bet)

**Xulosa** qilib aytganda, badiiy asarda lisoniy vositalar har bir qahramonning,obrazning shodligi, xursandligi, xafaligi, achchiqlanishi, g'azabi kabi ruhiy holatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алпанова Ш. Нуткий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Фаргона, 2018. –Б.102-103.
2. Саидхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан.номз.дисс. –Тошкент, 1993.
3. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). 20. ASIR ÖZBEK DİLBİLİMİNDE MORFOLOJİYE AİT GÖRÜŞLERİN ŞEKİLLENMESİNDE PROF. EYYÜP GULAMOV'UN YERİ. Turkish Studies (Elektronik), 10(12), 1-14.
4. Israilova, S. (2022). “KO ‘K” LEKSEMASI SEMANTIKASINI YORITISHDA TEZAURUS MODELIDAN FOYDALANISH. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
5. Ganievna, N. A. (2015). 20. Asır Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri.